

**IXTISOSLIK FANLARINI  
O'QITISHNING TAJRIBA-SINOV ISHLARI TADQIQI**

**Eshmonov Otabek Usanovich,**

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti dotsenti

*Annotation.* Ixtisoslik fanlarini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishining tajriba-sinov ishlari tadqiqi natijalari keltirilgan.

**Калит сўзлар:** metodologik, didaktik, yondoshuv, tadqiqot, tajriba-sinov, model, qishloq xo'jaligi, kasbiy faoliyat, ta'lim sifati, samaradorlik, metodika, daraja, guruh, respondent, mezon, dastur, kasbiy faoliyat.

**Эшманов Отабек Усанович,**

**Доцент Университета экономики и педагогики**

**СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫЕ НА УКИЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ  
ИССЛЕДОВАНИЕ ОБУЧЕНИЯ**

**Аннотация.** Представлены результаты экспериментального исследования научно-исследовательской работы по совершенствованию преподавания профильных предметов.

**Ключевые слова:** методический, дидактический, исследование, эксперимент, , профессиональная деятельность, качество образования, эффективность, методология, уровень, группа, респондент, критерий, программа, профессиональная деятельность.

**SPECIALIZED SCIENCES EXPERIMENTAL RESEARCH OF TEACHING**

**Eshmonov Otabek Usanovich,**

Associate Professor of the University of Economics and Pedagogy

*Abstract. The results of an experimental study of research work on improving the teaching of specialized subjects are presented.*

**Key words:** methodological, didactic, approach, research, experimental test, model, agriculture, professional activity, quality of education, efficiency, methodology, level, group, respondent, criterion, program, professional activity

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modelini amalga oshirishda pedagogik shart-sharoitlarning yetarliligi hamda metodologik yondashuvlar va didaktik tamoyillarni shakllantirish ixtisoslik fanlari bo'yicha ta'limning modulli tizimini loyihalash asosida ishlab chiqilgan metodika va o'quv uslubiy ta'minot samaradorligi darajasini aniqlashdan iborat bo'ldi.

**1-bosqich. Aniqlash va tayyorgarlik** bosqichini qishloq xo‘jaligi bo‘lajak muhandislariga ixtisoslik fanlarini o‘qitish jarayonida kasbiy kompetentligini va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etildi.

**2-bosqich. Amalga oshirish tajriba-sinov bosqichida** qishloq xo‘jaligi bo‘lajak muhandislariga ixtisoslik fanlarini o‘qitish jarayonida kasbiy kompetentligini va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish modelining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari belgilandi va sinovdan o‘tkazildi.

**3-bosqich. Yakunlovchi bosqichida** tajriba-sinov ishlari natijalari sarhisob qilindi, natijalar qayta ko‘rib chiqildi, tajribadan o‘tkazilgan ma’lumotlar tizimlashtirildi, matematik-statistik tahlil qilindi va ish natijalari rasmiylashtirildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan pedagogik model va metodika tadbiq qilindi. Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan bo‘lajak qishloq xo‘jaligi soha mutaxassislarining fikr-mulohazalari o‘rganildi, ta’lim sifati va samaradorligi oshganligiga ishonsh hosil qilish maqsadida suhbatlar o‘tkazildi.

### 1-jadval

#### Tajriba-sinov o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari

№ 3	OTMning nomi	Respondentlar soni			OTMlar boyicha jami respondentlar soni
		2020-2021 o‘quv yili	2021-2022 o‘quv yili	2022-2023 o‘quv yili	
1. 1.	“TIQXMMI” MTUning QIAI	67	59	62	<b>188</b>
2. 2.	NamMQI	30	28	31	<b>89</b>
3. 3.	BTRBI	46	42	47	<b>135</b>
	<b>Jami:</b>	<b>143</b>	<b>129</b>	<b>140</b>	<b>412</b>

Tajriba-sinov ishlari shartli ravishda “tajriba guruhi” va “nazorat guruhi” deb belgilab olingan guruhlarda o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari bir xil material va ikki xil metodikadan foydalangan holda o‘tkazilib, ikkala guruh talabalarida kasbiy tayyorgarlikni faollashganligi taqqoslandi. Shuningdek, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarning mazmuni, o‘rganish shart-sharoitlari, metodlari tanlanib, savol-javob, pedagogik kuzatish natijalari, talabalarning bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari jamlandi. Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil qilib borildi va bir-biriga taqqoslanib xulosalar chiqarildi.

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, tajriba-sinov guruhida

qatnashgan talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari tajriba boshida 9,47%, tajriba oxirida 21,05% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 17,89% dan tajriba oxirida 46,32% o'sdi, past daraja esa 72,64% dan 32,63% ga kamaydi (2-jadval).

Nazorat guruhida qatnashgan talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari tajriba boshida 7,53%, tajriba oxirida 10,75% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 18,28% dan tajriba oxirida 26,88% o'sdi, past daraja esa 74,19% dan 62,36% ga kamaydi.

## 2-jadval

### "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari

Kasbiy faoliyatgatayyorg arlik darjasи	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tajriba boshida 95 nafar talaba		Tajriba oxirida 95 nafar talaba		Tajriba boshida 93 nafar talaba		Tajriba oxirida 93 nafar talaba	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
<b>Yuqori</b>	9	9,47	20	21,05	7	7,53	10	10,75
<b>O'rta</b>	17	17,89	44	46,32	17	18,28	25	26,88
<b>Past</b>	69	72,64	31	32,63	69	74,19	58	62,36
<b>Jami</b>	<b>95</b>	<b>100</b>	<b>95</b>	<b>100,0</b>	<b>93</b>	<b>100,0</b>	<b>93</b>	<b>100,0</b>

Tajriba-sinov guruhida qatnashgan talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari tajriba boshida 9,09%, tajriba oxirida 20,45% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 18,18% dan tajriba oxirida 50% o'sdi, past daraja esa 72,73% dan 29,55% ga kamaydi.

Nazorat guruhida qatnashgan talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari tajriba boshida 8,89%, tajriba oxirida 13,33% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 17,78% dan tajriba oxirida 20% o'sdi, past daraja esa 73,33% dan 66,67% ga kamaydi.

Namangan muhandislik-qurilish instituti)da tajriba guruhidan 44 nafar, nazorat guruhidan 45 nafar talabalarga pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi (3-jadval).

## 3-jadval

### Namangan muhandislik-qurilish institutida olib berilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari

Kasbiy faoliyatgata yyorgarlik darajasi	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tajriba boshida 44 nafar talaba		Tajriba oxirida 44 nafar talaba		Tajriba boshida 45 nafar talaba		Tajriba oxirida 45nafar talaba	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Yuqori	4	9,09	9	20,45	4	8,89	6	13,33
O'rta	8	18,18	22	50,00	8	17,78	9	20,00
Past	32	72,73	13	29,55	33	73,33	30	66,67
<b>JAMI</b>	<b>44</b>	<b>100</b>	<b>44</b>	<b>100</b>	<b>45</b>	<b>100</b>	<b>45</b>	<b>100</b>

Tajriba-sinov guruhida qatnashgan talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari tajriba boshida 8,82%, tajriba oxirida 19,12% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 20,59% dan tajriba oxirida 50,0% o'sdi, past daraja esa 70,59% dan 30,88% ga kamaydi.

Nazorat guruhida qatnashgan talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari tajriba boshida 7,46%, tajriba oxirida 11,94% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 16,42% dan tajriba oxirida 25,37% o'sdi, past daraja esa 74,62% dan 61,19% ga kamaydi.

Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida 5430100-“Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” bakalavriat ta'lif yo'naliishida tajriba guruhidan 68 nafar, unga parallel ravishda nazorat guruhida 67 nafar talabalarga pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi aniqlandi (4-jadval).

Tajriba-sinov guruhida qatnashgan talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari tajriba boshida 9,18%, tajribaoxirida 20,29% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 18,84% dan tajribaoxirida 48,31% o'sdi, past daraja esa 71,98% dan 31,40% ga kamaydi.


Nazorat guruhida qatnashgan talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari tajriba boshida 7,80%, tajriba oxirida 11,71% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 17,56% dan tajriba oxirida 24,88% o'sdi, past daraja esa 74,14% dan 62,91% ga kamaydi.

Tajriba-sinov ishlari talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish metodikasi asosidaolib borildi. Mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, bahs-munozara uyuştirish, talabalarning fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashish, amaliy faolliklarini o'stirish, mustaqil qaror qabul qilishni shakllantirish asosidaotkazildi.

#### 4-jadval

#### Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida olib berilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari

Kasbiy faoliyatgata yyorgarlik darajasi	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tajriba boshida 68 nafar talaba		Tajriba oxirida 68 nafar talaba		Tajriba boshida 67 nafar talaba		Tajriba oxirida 67 nafar talaba	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Yuqori	6	8,82	13	19,12	6	7,46	8	11,94
O'rta	14	20,59	34	50,0	11	16,42	17	25,37
Past	48	70,59	21	30,88	50	74,62	41	61,19
JAMI	<b>68</b>	<b>100</b>	<b>68</b>	<b>100</b>	<b>67</b>	<b>1100</b>	<b>67</b>	<b>100</b>



1-rasm. "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Namangan muhandislik-qurilish instituti hamda Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida olib berilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari diagrammassi

Olingen natijalar Styudent statistikasi mezoni yordamida tahlil qilindi va Misrosoft Oxsol dasturida qayta ishlandi.

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonshalari sifatida tanlab olingen tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalarining samaradorligi 12,1% yuqori ko'rsatkishga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Eshmanov O.U. Qishloq xo'jaligi soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etishning istiqbolli imkoniyatlari// "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" mavzusidagi 12-sonli Respublika ilmiy konferensiyasi. №12. 15-iyun 2023y. – B. 286-293.

2. Eshmanov. O.U. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv va kasbiy tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish// "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" mavzusidagi 12-sonli Respublika ilmiy konferensiyasi. 2023. – № 12. – B. 272-275.